



STOMATOLOGIYA DUNYOSI

2022 YIL

OKTYABR

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI NASHRI

TALABALIKKA BAG'ISHLOV TADBIRI BO'LIB O'TDI



Yangi o'quv yilida Toshkent davlat stomatologiya instituti bakalavriyati uchun 1000 ga yaqin talaba qabul qilindi. 30-sentyabr kuni Institutimizqa kirgan

1-kurs talabalari tantanali tarzda qasamyod qilishdi.

Shuningdek, Toshkent davlat stomatologiya instituti ga uzoq yillar davomida o'z hissasini qo'shib, xalqimiz dardiga davo topadigan shifokorlarni tayyorlashda



Tadbirdavomida talabalar tomonidan ustozlarni madh etuvchi she'rlar va qo'shiqlar ijro etilidi hamda yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.



O'z hissasini qo'shgan ustozlarga «1-oktyabr – Ustoz va murabbiylar kuni» munosabati bilan tashakkurnoma va bayram esdaliklari topshirildi.



INNOVATION RIVOJLANISH VAZIRLIGIDA G'OYALAR HAFTALIGI



Bugungi kunda barcha oliy ta'lif muassasalariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri bu – ilmiy salohiyatni ko'tarish, yangi ishlanmalar, innovatsion loyihalar bilan jamiyat rivojiga foyda keltiruvchi ilm egalariga imkoniyatlar yaratib berishdir. Toshkent davlat stomatologiya

institutida hozirda 62% pedagoglarimiz ilmiy darajali hisoblanadi. Bu esa yurtimizdagi Oliy ta'lif muassasalari orasida 2-o'rin hisoblanadi. 18-oktyabr kuni Innovatsion rivojlanish vazirligida xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi boshlandi.



Haftalikda Toshkent Davlat stomatologiya instituti loyihalari ham o'r'in oldi.

Toshkent Davlat stomatologiya institutining innovatsion loyihalari va olib borilayotgan ishlar haqida haqida rektor Nodir Qodirovich ma'ruza qildi

DUNYO UZRA JARANGLAGAN TIL



Toshkent davlat stomatologiya institutida joriy yilning 20-oktabr kuni O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun bayrami munosabati bilan "Dunyo uzra jaranglayotgan til, inson taraqqiyotining tayanchi" shiori ostida bayram tadbiri tashkil etildi. Bayram institut rahbar-xodimlari, professor o'-qituvchilar va talaba-yoshlar ishtirokida o'tdi.

Tadbirda mehmon sifatida

O'zbekiston yozuvchilar uyu-shmasi a'zosi, filologiya fanlari nomzodi, Respublika "Oltin qalam" mukofoti sovrindori D.Rajabov hamda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi M.Raxmonovlar taklif etilib, ular tomonidan o'zbek tilining davlatchilik tariximizdagи ahamiyati haqida ma'ruzalari tinglandi.

Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi, O'zbek tili va pedagogika kafedrasи, Axborot-resurs mar-kazi, Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasи hamkorligida tashkil etilgan bayram tadbirida

institutning faol va iqtidorli talabalari Suyunov Raxmatillo, Rustamova Zuxra, Eshboyev Temur, Jumayev Islombok, To'lagenov Sunnatillo hamda Mamasodiqova Zilolalar tomonidan g'azalxonlik va sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Shuningdek, tadbir davomida Xalqimizning yosh estrada xonandasи Sardor Shukurov tomonidan vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etildi.



TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI ILMYI VA INNOVATSIYA ISHLARI BO'YICHA PROREKTORI QOZOG'ISTONDAGI XALQARO KONGRESSDA ISHTIROK ETDI



2022-yil 6-7-oktabr kunlari Ilmiy ishlар va Innovatsiya prorektori **Shomurodov Qahramon Erkinovich** Qozog'iston Respublikasining Oqtobe shahridagi **M. Ospanov nomidagi Garbiy Qozog'iston tibbiyot universitetining** 65

yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan "Stomatologiyada Innovatsiya: Bugun, Ertaga" mavzusidagi "Qozog'iston davlatining Stomatologlar I Xalqaro Kongressi"da ishtirok etdi. Kongress stomatologiyaning eng dolzarb muammolarini qamrab olgan bo'libyechimlar bilantahlilqilindi. Shuningdek, TDSI Ilmiy ishlар va Innovatsiya bo'yicha prorektori Q.E. Shomurodov ushbu oliy ta'lim muassasida qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha tahsil olayotgan TDSI talabalari bilan uchrashuv tashkil

elib, ularning ta'lim jarayoni bilan tanishishib chiqdi.



TALABALARIMIZ YUTUQLARI

3-4 oktyabr kunlari Buxoro davlat tibbiyot institutida o'tkazilgan stomatologiya bo'yicha talabalar olimpiadasida Toshkent davlat stomatologiya instituti jamoasi umumiyl jamoa hisobida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, talabalarimiz bir qator nominatsiyalarda taqdirlanishdi:

Terapevtik stomatologiya bo'yicha – **Irisboyeva Feruza**
Professional mahorati uchun – **Patxiddinova Malohat**
Kreativ fikrlashi uchun – **Ne'matillayeva Zulfiya**
Kreativlik intellekt va talant uchun – **Atoeva Xadicha**

G'oliblarni tabriklaymiz!



“ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA VA ORTODONTIYANING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMYI-AMALIY ANJUMANI

2022 yilning 14 oktyabr kuni Toshkent davlat stomatologiya institutining anjumanlar zalida Toshkent davlat stomatologiya instituti tomonidan rejalashtirilgan “Ortopedik stomatologiya va ortodontiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o’tkazildi. Ushbu an-



va texnologiyalari, raqamli stomatologiyaning istiqbolli yo’nalishlari kabi mavzularda fikr almashildi, ilmiy izlanishlar haqida so’z bordi.



jumanda Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya hamda O’zbekistonning nufuzli tibbiyot stomatologiya oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tekshirish institutlari olimlari tomonidan ortopedik stomatologiya va ortodontiya yo’nalishida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, texnikalar va texnologiyalar, tish qatorlarini to’g’rilashning zamонавиј davolash usul



BIRNCHI TURK-O’ZBEK XALQARO STOMATOLOGLAR KONGRESSI



14-15 oktyabr oyida Turkiyaning Izmir shahrida Birinchi Turk-O’zbek xalqaro stomatologlar kongressi bo’lib o’tdi. Kongressni EGE universitetining rektori Budak N. va TDSI rektori Xaydarov N.K. ochib berdilar. So’z boshini institutimizning faxriy professori Azimov M.I. institutning tarixi va

faoliyati haqida so’z yuritdilar, hamda professor o’qituvchilar o’z ma’ruzalari bilan ishtiroy etishdi. Shuningdek, akademik almaschinuv kelishivi asosida talabalarimiz EGE universitetida o’z bilim va malaka mahoratlarini oshirishdi.

Toshkent davlat stoma-



tologiya instituti hamda EGE universiteti o’tasida hamkorlik haqida memorandum imzolandi. Memorandum asosida professor - o’qituvchilar va talabalarning akademik almaschinuv dasturi, ilmiy-amaliy loyihalar, hamkorlikda anjumanlar va seminarlar o’tkazishga kelishildi.



Sahifani Sherbekjon Shaymanov tayyorladi

XALQARO SEMINARGA TASHRIF



2 – 8 oktyabr kunlari Avstriyaning Zalzburg shahrida Amerika-Avstriya fondi tomonidan tashkil etilgan "Chakka suyagi jarrohligi" mavzusiga bag'ishlangan **Open Medical Institute** Seminarida Toshkent davlat stomatologiya instituti, Otolorinologiya kafedrasi professori U.N.

Vohidov ishtirok etdi. AQSh va Yevropaning taniqli professorlari tomonidan o'qilayotgan ma'ruzalarda hamda chakka suyagida o't-kaziladigan "kadaver" kursida qatnashib keldi. Ishbu seminarda ishtirok



etish uchun butun dunyoning 20dan ortiq davlatlaridan



yetakchi otorinolaringolog sohasi shifokorlari kelgan. Mazkur seminardan so'ng U.N. Vohidov institutimiz xodimlari bilan zamon talablariga mos o'z bilim va maxorati bilan ulashadi va institutimiz rivojiga katta hissa qo'shadi.

YUZ-JAG' SOHASIDAGI JARROHLARIMIZ KOREYADA MALAKA OSHIRISHDI



Prezidentimiz tashabbuslari bilan tibbiyot xodimlarining chet elda malaka oshirishi, stajirovka o'tashi va ta'lim olish uchun keng sharoitlar yaratib berilmogda. Joriy yilning 6-oktyabr kuni Toshkent Davlat stomatologiya institutidan 4 nafar yosh yuz-jag' jarrohlari dunyoda nufuzli hisoblangan eng yuqori yuzlikka kiruvchi

(dunyo tan oluvchi QS reytingda 97 o'rinda) Korean Sangyunkwan universiteti koshidagi **Seoul Medical Centerga** yetib kelishdi. Safar jarayonida yosh jarrohlar nafavat tibbiyot sohasidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlabgina qolmay



amaliyotida xususan: 1-bosqich pastki jag' rezeksiyasi, so'ngra fibula va titan plastinalar orqali pastki jag' uzlucksizligini tiklash, 2-bosqich titan plastinalarni olish, 3-bosqich implantasiya yor-damida bemorni reabilitasiya qilish amaliyotlarida qatnashishdi.



bal-ki tibbiyot OTMlari o'quv jarayonlari yuzasidan tajriba almashilmoqda.

Seul shaxrida joylashgan Samsung tibbiyot markazidagi bizning xodimlarimiz 4 ta murakkab jarrohlik



XALQARO QIZLAR KUNI

“Xalqaro qizlar kuni” BMT Bosh Assambleyasining 2011 yil 19 dekabrdagi rezolyutsiyasiga asosan, 11 oktyabr—“Xalqaro qizlar kuni” deb e’lon qilingan. Ushbu kunda Toshkent davlat stomatologiya institutida “Xalqaro qizlar kuni” keng nishonlandi. Bu sana har yili jahon bo’ylab turli davlatlarda qizlarning kamsitilishi, ularning ijtimoiy muammolariga e’tibor qaratish maqsadida nishonlanib kelinmoqda. Bu muammolarga majburiy nikoh, ularning ta’lim va sog’lioni saqlash xizmatlaridan foydalanişlarini ta’minlash kabi holatlar kiradi. Millat davomchisi bo’lmish qizlarni ma’rifatli, ziyoli va onalik maqomiga munosib qilib voyaga yetkazish masalasiga alohida



e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bugunga qadar ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Tadbirda Toshkent davlat stomatologiya instituti Xotin-qizlar qo’mitasi raisi F.Shaamuxamedova, Xalqaro ta’lim fakulteti xotin qizlar qo’mitasi raisi L. Akramova, institut psixologi E.Safarova hamda Toshkent shahar targ’ibot guruhi rahbari D.Axmedova, Yashnobod tuman hokimligi qoshidagi “Sog’lom avlod”fondi rahbari T.Sharipova, Yashnobod tumanidagi xotin-qizlar faoli G.Nurimovalar o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi. Tashrif buyurgan mehmonlar mamlakatdagi ulkan o’zgarishlar va yangilanishlarda

yosh qizlar, ayollar masalasi, ularning salomatligini yaxshilash, ta’lim olishiga shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy muammolarini hal etishga ko’maklashish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgani quvonarli hol ekanligini va bu borada talaba-qizlarning faolligi ham muhim bosqich ekanligini turli hayotiy misollar bilan tushuntirib berishdi.



AQSHLIK PROFESSOR TDSIDA MARUZA O’TKAZDI

2022-yil 15-oktabr kuni Terapevtik stomatologiya yo’nalishi 2-bosqich magistr talabalari, hamda stomatologiya fakulteti 201-203-guruh talabalariga Amerika qo’shma shtatlari Janubiy Korolina universiteti



professori, yetuk mutaxassis, anesteziolog Dadabayev Alisher Ravshanbekovich ishtirokida «Spinal Cord and DRG Stimulation» mavzusida ma’ruza o’tkazildi.



FANGA BAHSHIDA HAYOT



Biz shunday insonlarga zamondoshmizki, ularning xayot yo'llari barchamizga o'rnak bo'lishga arziyi. Bunday insonlarning bebaho tajribasi, fidokorona mehnati, ma'rifatiyu ziyosi, sabr-irodasi, ilmi va bilimi komillik nishonasi bo'lib, shunday insonlardan biri - Ijtimoiy fanlar bioetika kursi bilan kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori Muxamedova Zamira Muxamedjanovna sanaladi. U 1947-yil 28 oktyabr kuni Farg'ona shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. 1963-yilda 11 yillik musiqa maktabini bitirgach, 1965-yili xamshira-tarbiyachi ixtisosiga ega bo'ldi. 1970-yilda Toshkent politexnika institutining "Kimyo-teknologiya" fakultetini imtiyozli diplom bilan bitirdi.

Ustozimiz Muxamedova Zamira Muxamedjanovna pedagogik faoliyatini 1970 yili Farg'ona politexnika instituti "Kimyo" kafedrasi assistant-o'qituvchisi lavozimida ishlash bilan boshladi. Tabiat va jamiyat, inson va tabiat, jamiyat va inson muammolari bilan qiziqishlari yoshgina pedagogini 1971-1972 yillarda Rossiya fanlar akademiyasining Moskva falsafa instituti tabiatshunoslikning

muammolari bo'limi stajyor-tadqiqotchisi bo'lib ishslashga va izlanishlar olib borishga yetakladi. 1972 yilda Rossiya fanlar akademiyasining Falsafa institutining tabiatshunoslikning falsafiy muammolari bo'limi aspiranturasiga o'qishga kirib, RFA falsafa instituti professori f.f.d. Novik I.B. rahbarligi ostida "Texnika va biosferaning o'zaro ta'sirlari muammosi (Metodologik analiz)" mavzusi buyicha nomzodlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Ilmiy ish mavzusi - inson, uning ongli faoliyati, insonning tabiatga ta'siri, texnika va biosferaning o'zaro ta'sirlari muammolari bilan bog'liqliklari haqida bo'lganligi sababli, falsafa fanlari nomzodi darajasini olishga muvaffaq bo'ldilar.

O'z ilmiy salohiyatini oshirib, jonajon O'zbekistonga qaytib kelgan Zamira Muxamedjanovna, 1978-yilda Tosh-kentaxborot texnologiyalar universiteti "Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimida o'z pedagogik faoliyatini davom ettirdi. 1 TashGosMI falsafa kafedra dosenti (1986-2005), Toshkent tibbiyot akademiyasining "2-son ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti lavozimida ishladi. O'zini umrini ilm-fan bilan chambarchas bog'lagan ustozimiz, oilada vafodor ayol, farzandlarining mehribon onasi, egizak nabiralarning sevimli buvijonisi bo'lish bilan bir qatorda, "O'zbekiston Respublikasida ta'limdi gumanizasiyalashning falsafiy metodologik asoslari" falsafa fanlari doktorlik dissertasiyasini 2008-yilda yoqlab, o'zi dars berayotgan oliygohning ixtisosligi bilan bog'ladi. 2014

yildan hozirgi vaqtgacha TDSI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dosenti lavozimida faoliyatini davom ettirmoqda. Mana deyarli 40 yildan ziyod ustozimiz va hamkasbimiz Muxamedova Zamira Muxamedjanovna shifokorlarning bir nechta avlodiga falsafa, tibbiyotning falsafiy muammolari va ijtimoiy fanlardan ta'lim-tarbiya be-rib, sog'liqni saqlash tizimi kadrlarini yetishtirishga salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bugungi kunda ular o'qitgan talabalar respublikamizning turli viloyatlarida elga xizmat qilmoqdalar.

Zamira Muxamedjanovna doimo tinmay izlanishda bo'lib, yoshlarga namuna bo'lgan zahmatkash olim sifatida, 160 dan ortik ilmiy, o'quv, o'quv - metodik qo'llanmalar, jurnallardagi maqolalar, ma'ruzalar va shu bilan birga monografiyalar, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, kurslarga programmalar, o'quv qo'llanmalar muallifi hisoblanadilar. Ular tomonidan nashr etilgan kitoblar va maqolalar umrlari davomida qo'lga kiritgan ma'naviy boyligu-muvaffaqiyatlari hisoblanadi. Hatto fan rivojidagi ilmiy hissalarini chet ellarda ham e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi qoshidagi Milliy etika qo'mitasi a'zosi (2004 yildan), ta'limning bioetika yunalishida GEOBS UNESCO loyihasining xalqaro eksperti (2005 yildan), Eron (2006 yildan), Qozog'iston (2007 yildan) bioetika assotsiasiyanining faxriy a'zosi (2006 yildan), O'zbekistondagi Rossiya falsafa tashkilotining bo'limi raisi (2006 yildan), O'rta Osiyo bioetika assotsiasiyanining

a'zosi (oktyabr, 2011 yildan), O'zbekiston vrachlar assosiasiyasi bioetika qo'mitasining raisi muovini (2013 y. iyundan) lavozimlarida ishlagan. Bioetika bo'yicha bir qator xalqaro kongress va konferensiyalar, seminarlar va treninglar qatnashchisi bo'lgan: Tehron, Syurix, Moskva, Sankt - Peterburg, Kiev, Qozon, Saratov, Olmata, Ostona, Tomsk va boshqalar.

Ya'ni yangicha yondonshuv, yangicha dunyoqarash asosida bioetika va uning dolzarb muammolarini hal etish borasida respublika bo'yicha sanoqli ekspertlardan biri hisoblanadilar.

Shu bilan birligida, Muxamedova Zamira Muxamedjanovna o'z ishiga mas'uliyatli mutaxassis, meh-

ribon ustozi sifatida TDSI-da o'z o'rinaliga egalar. Kafedrada o'tiladigan fanlardan barcha fakul'tet rusiyabon guruhlarida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib boradi va fanlar orqali talabalarni huquqiy, siyosiy ongini o'stirish, falsafiy dunyoqarashini shakkantirish va shu orqali talabalarni milliy g'ururini o'stirish, yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashga o'z hissalarini qo'shishga da'vat etib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga o'z hissasini qo'shib, talabalarni kreativ fikrlashga undab kelmoqda.

Zamira Muxamedjanovna nafaqat teren fikrli, balki madaniy tafakkuri keng, kreativ xulosa chiqarish, yangi fikr, yangi g'oya yaratish kabi ijodkorlik salohiyatiga ega bo'lib, nafaqat kafedra va institut

hayotida, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lgan faol olima sanaladi. Muxamedova Z.M. tomonidan yillar mobaynida halqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilib, institumizni xorijning nufuzli olimlari va ilmiy hamjamiyatga tanitishda hissalari beqiyosdir.

Biz, minnatdor shogirdlar, Z.M. Muxamedova va ular kabi fidoyi ustozlarimizni doimo ulug'laymiz, ularning beqiyos matonati va shijoati oldida hurmat bilan bosh egamiz. Ularga mashaqqatli pedagogik faoliyatida mustahkam sog'liq tilab, ularning ibratli umr yo'llari yoshlari yo'lini mash'aladek yoritib turishini Yaratgandan so'rab qolamiz.

TDSI Ijtimoiy fanlar bioetika kursi bilan kafedrasi dotsenti Umirzakova N.A.

TALABA-YOSHLAR MINBARI

Beg'ubor bolalik

Tong yorishdi... Ko'zlarim ochdim
Yuragimda iliq hayajon
Tabiatga mehrimni sochdim
Hayollarga cho'mdim begumon

Ko'klam kelsa qog'ozdan varrak
Uchirardik bo'lib olamon
Adirlardan bahordan darak
Boychechaklar terardik chunon

Do'st- dugona jamlanar bo'lsak
Tog'dek yumush sira ortmasdi
O'ynab chunon horiqib-tolsak
Shiddatimiz barham topmasdi

Nonlar yopar bo'lalar onam
Jaiji kulcha yasab olardim
Tayyor bo'lgan ovqatiga ham
Goh suvin, goh tuzin solardim

Boshim qo'yib yelkalariga
Otam qaynoq mehrin tuyaman
Yetmas edim qadamlariga
Barchasini eslab qo'yaman

Har soniyani, har bir lahzani
Qo'msab zavqli o'ya tolaman
Bir umrga qolib ketgani
Ne darkordir borim beraman.
Akbarova M.M.

Qalbi ummon ustozi

Jaiji qora ko'zlarga
Ziyo sochar dildan,
Mehringiz yog'ar elga
Chiroy olgansiz guldan.

Tilingiz boy so'zlarga
Nur olasizmi durdan?
Toshasiz o'xshab Nilga,
Quvonasizmi birdan.

Ilm sirlarin Sizdan
O'rganayapmiz biz chunon,,
Rahmat sizdek ustoza,
Keldingiz tutib qalqon.

Ayrliliq chekar og'ir,
Xursandman chin dilimdan,
Ochar edingiz bag'ir,
Mehr izlaymiz kimdan?

Unutmaymiz Sizni hech,
Izlaymiz nedan ko'mak
Ustoz, rahmat, berdingiz -
Bizga porloq kelajak!

Vatanim

Vatanimning tuprog'i zardir,
Bizga jondan azizimizsan.
Seni suyguvchi xalqdir,
Sen onamsan, sen mehribonsan.

Yorib ko'rsa, ko'ksingga to'gan,
Yovdan qo'lgan xanjar izlari.
Bugun sening malhaming bizmiz,
O'zbekning yigit-qizlari.

Mana yorug' yuzing dunyoda,
Baxting bo'lsin doim ziyoda.
Sendan ayro tushmasin yo'lim,
Umrim o'tsin hamki piyoda.

Tursunova M.

**TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
BO‘YICHA BO‘SH PROFESSOR-O‘QITUVCHI XODIMLAR TARKIBIGA
TANLOV E’LON QILADI**

2022 yil, Oktyabr

Kafedra mudiri:

Terapevtik stomatologiya propedevtivkasi-1
Akusherlik va ginekologiya-1

Professor:

Onkologiya va tibbiy radiologiya-1
Xirurgiya va harbiy dala jarroxligi -1
Gospital terapevtik stomatologiya-1
Bolalar yuz-jag‘ jarrohligi-1
Gospital ortopedik stomatologiya -1

Dotsent:

Ijtimoiy fanlar bioyetika kursi bilan-2
Fiziologiya va patologiya-4
Mikrobiologiya va farmakologiya-1
Biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyalari-1
Jamoat salomatligi sog‘liqni saqlashni
boshqarish va jismoniy madaniyat-3

Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagagi 20-sonli qaroriga muvofiq (qo‘srimcha 2015 yil 26 avgustdagagi 246-sonli qarori tahririda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 34–son, 455-moddasi) “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida o‘tkaziladi. Hujjatlar qabul qilish muddati bir oy e’lon qilingan kunidan boshlab.

**Hujjatlar rektoratning devonxona bo‘limiga topshiriladi. Manzilimiz:
Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 103-uy.**

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI	Tahrir hay’ati:	Bosh muharrir: Nodir Xaydarov	Gazeta 2015 yil 20 yanvarda 0842 raqam bilan ro‘yxatdan o’tgan. Manzil: Toshkent sh, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 103 Tel: 230-20-75, (90) 358-25-77 Gazeta bepul tarqatiladi.
	S.R.Baymakov T.V.Melkumyan, Y.Y.Sharipov, R.K.Yakubov	Muharrir o‘rinbosari: Shohinur Mirzayev Musahhih: Sherbekjon Shaymanov Sahifalovchi: Oloviddin Sobir o‘g‘li	